



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



19. Ur P. A course in language teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
- Valencia S. W. va A. C. Stallman. Multiple measures of prior knowledge: comparative predictive validity. Yearbook of the National Reading Conference, 1996. –B.427-436.
20. Aabdiraimova X.S. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'qib tushunish malakasini nazariy asoslari // Til va adabiyot.uz – Toshkent, 2024, – № 14. – B. 57-60.

ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi fakulteti

1-bosqich magistranti

xonzod27@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada ona tilini o'qitish jarayonida foto materiallardan foydalanishning ahamiyati, ularning dars jarayoniga ta'siri hamda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Vizual vositalar orqali til o'rganish o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini, tasavvurini va eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi. Foto materiallar, ayniqsa, murakkab grammatik tushunchalarni soddalashtirish, so'z boyligini kengaytirish va nutq madaniyatini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Maqolada shuningdek, amaliy darslardan misollar keltirilgan va o'qituvchilarga metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: foto materiallar, vizual vosita, ona tili, til o'qitish, metodika, eslab qolish.

Annotation:

This article analyzes the significance of using photo materials in the process of teaching the native language, their impact on lesson effectiveness, and their role in shaping students' knowledge and language skills. Visual aids enhance learners' logical thinking, imagination, and memory retention. Photo materials, in particular, serve as an effective tool for simplifying complex grammar topics, enriching vocabulary, and developing speech culture. The article also provides examples from real classroom practice and offers methodological recommendations for teachers.

Keywords: photo materials, visual aids, native language, language teaching, methodology, memory retention.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qitish metodlarining rang-barangligi o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, B.Turg'unov o zining "Til o'rgatish metodikasi" nomli metodik qo'llanmasi¹¹³da ta'kidlaganidek, ona tilini o'rganish jarayonida ko'rgazmali vositalar, xususan, foto materiallardan foydalanish o'quvchilarning tilni o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ta'limda vizual materiallardan unumli foydalanish muhim metodik yo'nalishlardan biri bo'lib bormoqda.

Foto materiallar til o'rganish jarayonida dars mazmunini boyitish, tushunchalarni aniqroq yetkazish va mavzuni esda qolarli qilishda katta ahamiyatga ega. O'quvchilar suratlar orqali voqeani tasavvur qilishlari, so'zlarni

¹¹³ Turg'unov B. Til o'rgatish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – B. 9–12.



kontekstda qo'llashni o'rganishlari mumkin. Ayniqsa, G.Qodirovaning "Pedagogik texnologiyalar" nomli o'quv qo'llanmasida ta'kidlanganidek, ilk (maktabgacha va boshlang'ich sinflarda) bosqichdagi o'quvchilar uchun rasmlar bilan ishslash, o'z fikrlarini tasvir asosida ifodalash til kompetensiyasini shakllantiradi.¹¹⁴

N.Axmedova o'zining "Ona tili darslarida innovatsion yondashuvlar" nomli maqolasaida foto materiallardan foydalanishda qo'llaniladigan bir qator metodik usullarni samarali hisoblab o'tadi va ularga quyidagi 4ta usulni sanab ko'rsatadi:

- 1) rasm asosida hikoya tuzish;
- 2) foto lavhadan so'z birikmalari yoki gaplar tuzish;
- 3) taqqoslash va tahlil qilish uchun turli fotosuratlarni berish;
- 4) Foto asosida munozara yoki bahs tashkil etish.

Bu yondashuvlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda, mustaqil fikr yuritish va mantiqiy izchillikda gap tuzish ko'nikmasini shakllantirishda muhim o'rinni tutadi. Tadqiqotlarga ko'ra, rasmi topshiriqlardan foydalangan holda olib borilgan darslarda o'quvchilarning ifodali nutqi 27% ga faollashgan.¹¹⁵ Masalan, "Tabiat go'zalligi" mavzusida turli fasllarga oid suratlar orqali fasllarni tavsiflash, ranglar, ob-havo, o'simliklar haqida so'z yuritish mumkin. Masalan, kuz fasliga oid suratda barglarning sariqligi, yomg'irli ob-havo, yerda yotgan barglar tasvirlangan bo'lsa, o'quvchilar bu tasvir asosida "Kuz manzarasi" mavzusida og'zaki tasvirlash matni tuzadilar. Bu bilan nafaqat leksik birliklarni, balki fasllar haqidagi umumiy bilimlarni ham takrorlash imkoniyati paydo bo'ladi.¹¹⁶

Til o'rganishda asosiy maqsadlardan biri bu o'quvchining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdir. Foto materiallar aynan shu maqsadga xizmat qiladi, chunki ular asosida o'quvchilar real hayotiy vaziyatlarni tasvirlaydi va o'z fikrlarini mustaqil ravishda ifoda etishlari mumkin. Masalan, "Savdo rastalari" mavzusida o'quvchilarga bozor manzarasi aks etgan fotosurat berilganda, ular kundalik hayotda ishlataladigan savdo terminlarini mustaqil tahlil qilgan va muloqot ko'nikmalarini amalda sinab ko'rishgan.¹¹⁷

Foto materiallardan foydalanishning bir nechta afzalliklari mavjud. Birinchidan, ular darsni yanada qiziqarli va interfaol qilish imkonini beradi, bu o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etishga yordam beradi. Ikkinchidan, foto materiallar o'quvchilarning estetik va vizual tasavvurini rivojlantiradi. Ular tasvirlangan hodisalarni yoki obyektlarni yaxshiroq eslab qolishlari mumkin. Foto materialarning yana bir afzalligi shundaki, ular til o'rganish jarayonini ko'proq real hayot bilan bog'laydi, shuning uchun o'quvchilar o'z kundalik

¹¹⁴ Qodirova G. Pedagogik texnologiyalar. – Samarqand: Zarafshon, 2021.27–30-b

¹¹⁵ Axmedova N. Ona tili darslarida innovatsion yondashuvlar. // Filologiya va tillarni o'qitish jurnali. – 2022. – №1. 46–47-b.

¹¹⁶ Mamatqulov O. Vizual vositalardan foydalanish metodikasi. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2020. – 58–63-b.

¹¹⁷ Xolboyeva L. Ona tilini o'qitishda integrativ yondashuv. // Til va adabiyot ta'limi. – 2023. – №2. 24–25-b.



hayotidagi vaziyatlarni osonroq tushunishlari va shu bilan tilni o'rganish samaradorligini oshirishlari mumkin. Kamchiliklari esa, birinchidan, foto materiallarni har :m to'g'ri tanlash va taqdim etish qiyin bo'lishi mumkin. Ayrim holatlarda, suratlar noaniq yoki to'liq tushunarsiz bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, ba'zan foto materiallar o'quvchilarga noto'g'ri tushunchalarni berishi yoki ularning e'tiborini boshqa tomonga qaratar ekan, darsning maqsadiga to'liq xizmat qilmasligi mumkin. Shuningdek, ko'plab foto materiallar o'quvchilarda juda ko'p diqqatni jamlashni talab qilishi va bu dars jarayonining samaradorligini kamaytirishi mumkin.¹¹⁸

Xulosa qilib aytish mumkinki, ona tilini o'qitishda foto materiallardan foydalanish o'quvchilarda tilga qiziqishni oshiradi, dars jarayonini jonlantiradi va o'quvchilarining faol ishtirokini ta'minlaydi. To'g'ri tanlangan va metodik jihatdan asoslangan foto materiallar dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilarining eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi va tilni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turg'unov B. Til o'rgatish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. 9–12-b.
2. Qodirova G. Pedagogik texnologiyalar. – Samarcand: Zarafshon, 2021. 27–30-b.
3. Axmedova N. Ona tili darslarida innovatsion yondashuvlar. // Filologiya va tillarni o'qitish jurnali. – 2022. – №1. 46–47-b.
4. Mamatqulov O. Vizual vositalardan foydalanish metodikasi. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2020. 58–63-b.
5. Xolboyeva L. Ona tilini o'qitishda integrativ yondashuv. // Til va adabiyot ta'limi. – 2023. – №2. 24–25-b.
6. Musurov Sh. O'quvchilarni foto materiallar bilan ishlashga o'rgatish. // Ta'lim texnologiyalari. – 2021. – №4. 33–35-b.

SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI

Abduqaxxorova Durdonha Farxod qizi

*ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 2-kurs magistranti
@abduqahhorovadurdon9@gmail.com*

Annotatsiya

Ushbu maqolada so'zning shakliy tuzilishi va unga birikkan qo'shimchalarning semantik-mantiqiy imkoniyatlari hamda nutqiy birlik sifatidagi funksional xususiyatlari chuqur tahlil etiladi. So'zning mazmunini ochib berish, uni maktab o'quvchilariga, ayniqsa, 5-sinf ona tili darslari orqali o'rgatish metodikasi lingvistik va pedagogik nuqtayi nazardan yoritiladi. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti sharoitida til o'rganish jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarda semantik tahlil qilish, mustaqil fikrash, o'z fikrini asosli ifodalash

¹¹⁸ Musurov Sh. O'quvchilarni foto materiallar bilan ishlashga o'rgatish. // Ta'lim texnologiyalari. – 2021. – №4. 33–35-b.



MASALASI	
<i>Abdiraimova Khusnobod Samat kizi. KOGNITIV VA METAKOGNITIV O'QIB TUSHUNISH STRATEGIYALARI</i>	597
<i>Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi. ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH</i>	603
<i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi. SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI</i>	605
<i>Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR T AHLILI</i>	614
<i>Askarova Mashxura Akmal qizi. NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH</i>	620
<i>Atamurodova Gulnora Shermurodovna. TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI</i>	626
<i>Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi. IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI</i>	630
<i>Avezova Dilnura Bayramovna. ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI</i>	635
<i>Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi. O'ZBEK TILINI XORIJY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI</i>	638
<i>Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi. SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI T AHLILI</i>	646
<i>Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi. TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDAN FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR</i>	651
<i>Hamroyev Umid Mustafoyevich. O'QUVCHILARDADA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	656
<i>Iskandarova Noila Muxtor qizi. PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	661
<i>Israelova Z. XORIJLIK TALABALARING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI</i>	664
<i>Komilova Lola Nosilloyevna. ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR</i>	670
<i>Axmadaliyeva Ozoda Iskandar qizi. 10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i>	677
<i>Madina Axmadjanova Mahmudjon qizi. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI GRAMMATIK MINIMUM ASOSIDA O'QITISH TAMOYILLARI</i>	682
<i>Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li. ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i>	689
<i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich. TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR</i>	693

